

O'ZBEKISTONNING TARIXIY-GEOGRAFIK NOMLARI VA ULARNING ETIMOLOGIYASI

Yuldosheva Bibirajab

BuxDU dotsenti

Latipova Shaxnoza

BuxDu talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqola O'zbekistonning tarixiy-geografik nomlari va ularning etimologiyasiga bag'ishlangan bo'lib, unda qadimiy toponimlarning shakllanishi, rivojlanishi va bugungi kungacha yetib kelish jarayonlari tahlil qilinadi. Maqolada Buxoro, Farg'ona, Toshkent, Guliston kabi tarixiy va zamonaviy joy nomlarining ma'no va kelib chiqishi haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, joy nomlarining lingvistik, madaniy va ijtimoiy omillar ta'sirida qanday o'zgarishlarga uchragani yoritilgan.

Toponimlarning o'ziga xosligi ularning nafaqat til tarixidagi, balki hududiy madaniyat va iqtisodiyotdagi ahamiyatini ko'rsatadi. Maqola davomida yozma manbalar, rivoyatlar va arxeologik tadqiqotlar asosida toponimlar bilan bog'liq ma'lumotlar tahlil qilinadi. Ushbu ish O'zbekistonning madaniy va tarixiy merosini anglash, shuningdek, joy nomlari orqali o'tmish voqealarini tadqiq qilish uchun muhim ilmiy asos yaratadi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston toponimikasi, tarixiy-geografik nomlar, etimologiya, Buxoro, Farg'ona, Toshkent, Guliston, qadimiy toponimlar, lingvistik o'zgarishlar, madaniy meros, yozma manbalar, arxeologik tadqiqotlar.

Annotation: This article is dedicated to the historical and geographical names of Uzbekistan and their etymology, focusing on the formation, development, and preservation of ancient toponyms. It provides valuable insights into the meanings and origins of names such as Bukhara, Fergana, Tashkent, and Gulistan, revealing their historical and cultural significance. The article examines how place names have evolved under the influence of linguistic, cultural, and social factors over time.

The uniqueness of these toponyms reflects not only the linguistic history but also their importance in regional culture and economy. By analyzing written sources, legends, and archaeological research, the article highlights the historical context associated with these names. This work serves as a critical resource for understanding Uzbekistan's cultural and historical heritage, offering a foundation for exploring the past through the lens of place names.

Keywords: Uzbekistan toponymy, historical and geographical names, etymology, Bukhara, Fergana, Tashkent, Gulistan, ancient toponyms, linguistic changes, cultural heritage, written sources, archaeological research.

KIRISH

O'zbekistonning boy tarixiy-geografik merosi ko'plab madaniyatlar, xalqlar va tsivilizatsiyalarning uyg'unlashuvi natijasida shakllangan. Bu jarayon hududdagi toponimlarning xilma-xilligida ham o'z aksini topgan. Har bir joy nomi o'ziga xos ma'noga ega bo'lib, u nafaqat til tarixi, balki mintaqaning madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi haqida ham qimmatli ma'lumot beradi. Shaharlar, qishloqlar, daryolar va tog'lar nomlari orqali o'tmishni anglash, qadimiy voqealarni yoritish va hududiy xususiyatlarni o'rganish imkoniyati mavjud.

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

Mazkur maqolada O‘zbekistonning tarixiy-geografik nomlari, ularning kelib chiqishi, rivojlanish bosqichlari va zamonaviy talqini haqida so‘z boradi. Tadqiqot davomida yozma manbalar, rivoyatlar, arxeologik tadqiqotlar va lingvistik tahlillarga asoslanib, qadimiy toponimlarning shakllanishiga ta‘sir ko‘rsatgan omillar o‘rganiladi. Bu ish nafaqat tarixiy merosni chuqur anglash, balki kelajak avlodga to‘g‘ri ilmiy asoslangan ma‘lumotlarni yetkazish uchun ham muhim ahamiyatga ega.

ASOSIY QISM

Odamlar odatda yashab turgan joylarining nomiga chuqur e‘tibor qaratib, ularning kelib chiqishiga oid ma‘no va izohlarni qidiradilar. Shu tarzda toponimlarning etimologiyasi shakllanadi. Ko‘p hollarda bu nomlar rivoyatlarga asoslangan shaklda ham yetib kelgan. O‘zbekiston toponimiyasiga to‘xtalishdan avval, qadimda ushbu hudud qanday nomlangan va bu nomlarning kelib chiqishi haqida so‘z yuritish lozim.

Dastlab, Markaziy Osiyo hududlari uchun "Turon" atamasi ishlatilgan. "Turon" – tarixiy-geografik atama bo‘lib, turli manbalarda turli ma‘nolar va maqsadlarda qo‘llanilgan. Ayrim manbalarda "Turon" atamasi ostida Movarounnahr, Turkiston va Markaziy Osiyo hududlari nazarda tutiladi.

O‘rta asr adabiyotlarida, xususan, Tabariy, Beruniy va Firdavsiy asarlarida, Eron va Turonning hududiy chegaralari Amudaryo orqali belgilangan. Dastlab bu atama "Avesto"da "tur" shaklida qayd etilgan bo‘lib, keyinchalik Markaziy Osiyo dasht va tog‘ hududlarida yashagan chorvador xalqlar bilan bog‘langan. Olimlarning fikricha, "tur" tushunchasi miloddan avvalgi VI–IV asrlarda yashagan sak-massaget qabilalari va ularga yaqin bo‘lgan boshqa etnik guruhlarini anglatgan. Bunga arxeologik dalillar va Xitoyning Shinjon-Uyg‘ur hududida saklarning tarqalishiga oid ma‘lumotlar ham isbotdir.

Akademik A. Muhammadjonovning fikricha, "Turon" atamasi sug‘d tilida "yer, tuproq, dala va dasht" ma‘nolarini bildirgan. Shu sababli "Turon" nomi keng yaylovlar, dala va dashtlarni anglatadi.

Hozirgi ilmiy va tarixiy-geografik adabiyotlarda "Movarounnahr" atamasi ostida Turkmanistondan tashqari bo‘lgan O‘rta Osiyo hududlari – O‘zbekiston, Tojikiston, Qirg‘iziston va Qozog‘istonning janubiy qismini anglash qabul qilingan.

Movarounnahr – arab tilida "daryoning narigi tomoni" degan ma‘noni anglatuvchi geografik atama bo‘lib, u islom mamlakatlarida keng tarqalgan. Uning fors tilidagi "Varorud" yoki "Varojayxun" shakllari ham mavjud. Ushbu atamalar XI asrga qadar Xuroson viloyatining bir qismi sifatida talqin qilingan, XI asrdan e‘tiboran esa Turkiston, xususan, Qoraxoniylar davlati va undan keyingi turkiy davlatlarning ma‘muriy hududi sifatida tushunilgan.

XI asrdan boshlab Yevropa tarixshunosligida "Movarounnahr" atamasining lotinchaga tarjimasi – "Transoksiana" yoki "Transoksaniya" shakli muomalaga kiritilgan. Bu nom o‘rta asrlardan boshlab Yevropa ilmiy adabiyotida keng qo‘llanilgan va Movarounnahrni geografik jihatdan aniq belgilab beruvchi asosiy atama sifatida xizmat qilgan.

Movarounnahr atamasi dastlab Muhammad sollallohu alayhi vasallam hadislarida tilga olingan. Aftidan, bu atama arablar orasida islomgacha bo‘lgan davrlarda ham ma‘lum bo‘lib, milodiy V asrda Sosoniylar davlatining shimoli-sharqida, Jayhun ya‘ni Amudaryoning narigi tomonida joylashgan Turk xoqonligiga qarashli hududlarni anglatgan. Qadimgi fors manbalaridan foydalangan holda arab geograf olimi Yoqut Hamaviy Movarounnahrni Turon mamlakatining nomi sifatida e‘tirof etgan.

Arablar O‘rta Osiyoga qilgan yurishlari davomida (V asrning ikkinchi yarmi – VIII asr boshlari) ikki xil tushuncha haqida ma‘lumotga ega bo‘lishgan: "**ma duna-n-nahr**" – "daryoning pastki

tomonii" va "**ma varo-n-nahr**" – "daryoning narigi tomoni". Birinchi atama Amudaryodan janubdagi, ya'ni Xuroson va Toxariston yerlari uchun ishlatilgan bo'lsa, ikkinchisi Amudaryodan shimoldagi Sug'd va shimoliy Toxariston hududlarini anglatgan.

O'rta Osiyo hududlariga nisbatan Movarounnahr atamasini arab geograflari orasida faqat al-Ishtaxriy va Ibn Havqal maxsus ishlatganlar. Bu esa, O'rta Osiyo hududlarining etnik, ijtimoiy va geografik xususiyatlariga oid qadimiy ma'lumotlarni o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

O'zbekiston hududida qadimdan yashab kelgan insonlar yashash joylarini nomlashda o'z ehtiyojlari va til xususiyatlariga mos keladigan shakllarni tanlaganlar. Bu jarayon davomida nomlarning etimologik o'zgarishi sodir bo'lgan. Shuningdek, xalq orasida rivoyatlar paydo bo'lgan va bu rivoyatlar ba'zan toponimlarning tarixini tushunishda muhim manba sifatida xizmat qilgan. Masalan, Andijon tumanidagi **Obtobachichek** qishlog'i nomi Xudoyorxon davriga borib taqaladi. Rivoyatlarga ko'ra, Abdurahmon ismli bola (Musulmonqulning o'g'li) xonning qo'l ostida xizmat qiluvchi "obtobachi" bo'lgan. Xudoyorxon unga yirik yer uchastkasini – "chek"ni in'om qilgan va bu hudud avval **Chek Obtobachi**, keyinchalik esa **Obtobachichek** nomi bilan atalgan.

O'zbek toponimlarida tojikcha affiksalar muhim rol o'ynaydi. Ular ko'pincha sotsial guruhlar, etnik guruhlar yoki professional tabaqalarni ko'rsatadi. Misollar:

- **Arabon** – arablar yashagan joylar.
- **Mang'iton** – mang'it qabilasi nomi bilan bog'liq hududlar.
- **Mirzoyon** – kotiblar tabaqasiga oid joylar.
- **Sozangaron** – hunarmandlar (igna yasovchilar) yashagan hudud.
- **Mug'iyon** – zardushtiylar (otashparastlar) yashagan joylar.
- **Hinduvon** – hindlardan iborat mahallalar.

Bunday toponimlar mahalliy aholi turmush tarzi, etnik tarkibi, kasb-hunarlar va diniy e'tiqodlari haqida boy ma'lumot beradi.

O'zbekiston hududida mikrotoponimlar deb ataluvchi kichik obyekt nomlari ham tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan hodisalarni o'zida mujassamlashtirgan. Masalan, **chek** kabi so'zlar yuzdan ortiq qishloq nomlari tarkibida uchraydi va ular O'zbekistonning iqtisodiy, ijtimoiy hamda madaniy tarixini o'rganishda qimmatli manba hisoblanadi.

Hududlar etimologiyasini o'rganish orqali biz o'tmish bilan bog'liqlikni his qilamiz va O'zbekistonning boy tarixini qadrlaymiz. Bu jarayon voqealar va hodisalarga kengroq kontekst taqdim etish orqali bugungi kunni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Toponimlarning shakllanishi va rivojlanishi nafaqat tarixiy hujjatlar va arxeologik dalillarga, balki og'zaki an'analarga ham asoslangan. Shu sababli, toponimlarni o'rganish orqali O'zbekiston tarixining yangi qirralarini kashf qilishimiz mumkin.

Toponimik joy nomlari ko'pincha tabiiy geografik xususiyatlar, iqlim sharoiti, daryolar, tog' massivlari yoki mahalliy xalqlarning shevasi bilan bog'liq holda shakllangan. Bu jarayon mintaqaning tarixiy va madaniy rivojlanishini aks ettiradi.

Misol tariqasida, Massonning fikricha, Nautaka Qarshi vohasining yunon tarixchilari tomonidan qo'llanilgan qadimiy nomidir. Ksenippa esa yuqori Qashqadaryoda joylashgan va keyinchalik Kesh viloyati nomini olgan tarixiy hudud nomi sifatida e'tirof etiladi. Biroq, uzoq yillar davomida Qashqadaryo vohasida arxeologik qazishmalar olib borgan tadqiqotchi S.K. Kabanov bu fikrga qarama-qarshi nuqtai nazarni ilgari suradi.

Shu bilan birga, shahar va vohalar nomlari yunon va xitoy manbalari ma'lumotlari bilan chalkashib ketgan. Ular olimlar tomonidan Ksenippa, Nautaka, Nashebo, Nashebolo, Bolo kabi turli nomlar bilan qayd etilgan. Yaqinda Afg'oniston shimolidan topilgan qadimiy hujjat ushbu bahslarga aniqlik kiritdi. Mazkur hujjatda shahar nomi Nikshapaya (keyinchalik "Nikshapa" yoki "Nikshap" shakllariga o'zgargan) deb tilga olingan. Keyingi davrlarda bu nom **Naxshab** shakliga o'tib, arablar istilosidan so'ng Nasaf deb atala boshlangan. Shunga qaramay, Naxshab va Nasaf nomlari uzoq vaqt davomida birgalikda ishlatilib kelingan.

Qashqadaryo vohasining har bir hududi o'zining boy tarixi va ma'noli toponimlari bilan ajralib turadi. Qadimiy yodgorliklar, shaharlar va vohalar tarixining boyligi bu hududni ilmiy tadqiqotlar uchun qiziqarli manbaga aylantiradi.

Jizzax viloyatining Zomin tumanida, baland tog' yaqinida joylashgan yassi tepaliklar "baraz" (qadimgi so'g'd tilida "balandlik") deb ataladi. Masalan, Kattabaraz, Kichikbaraz, Topchiboybaraz kabi joy nomlari bu hududga xosdir. Baraz so'zi mustaqil ravishda yoki boshqa nomlar tarkibida juda keng tarqalgan.

Bunga Zarafshon vodiysining bosh tomonida joylashgan Yagnobod, Burozo, Pushti Baroz, Sari Baroz kabi toponimlar misol bo'la oladi. Olimlarning fikriga ko'ra, Rossiyaning Yevropa qismidagi Berezanka, Berezan gidronimlari ham aynan ushbu baraz so'zidan kelib chiqqan bo'lishi mumkin.

Toponimlar, odatda, o'sha hududga xos tabiiy va ijtimoiy sharoitlar, shuningdek, lingvistik vositalar asosida shakllanadi. Ularni o'rganish, nafaqat til tarixi va nazariyasini anglash uchun, balki hududning madaniy va tarixiy rivojlanishini tadqiq etishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Joy nomlarining aksariyati juda qadimiy bo'lib, ularni ibtidoiy yozma manbalardagi shakllari va hozirgi talaffuzi bilan solishtirish orqali tilning o'zgarish jarayonlarini kuzatish mumkin. Masalan, Nurota nomi haqida ba'zilarining mo'g'ulcha "nuru" va o'zbekcha "tov" so'zlaridan kelib chiqqan deb ta'kidlashi e'tiborga molik bo'lsa-da, bu nom ming yildan ortiq vaqt avval qayd qilingan.

Mahalliy xalqlar odatda tushunarsiz bo'lgan nomlardan o'z tillariga mos keladigan ma'no qidirib, so'zlarni o'zgartirganlar, bu esa xalq etimologiyasini shakllantirgan. Xorazmdagi Hazorasp shahrining nomi ham bunga misol bo'lib, arab geograflari Istaxriy, Ibn Havqal va Muqaddasiy tomonidan «mustahkam qal'a» sifatida qayd etilgan. Ushbu nom bilan bog'liq rivoyatlar, masalan, devning ming qanotli otni ushlab olgani va bu yerning "Hazorasp" – "ming ot" deb atalishi haqidagi hikoyalar, ehtimol, soxta etimologiyaning namunasidir. Aslida, Hazorasp nomi qadimda Sharqiy Yevropada xoqonlik barpo qilgan turkiy hazarlar qabilasi bilan bog'liq bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Bundan tashqari, -as affiksi bilan shakllangan toponimlarning keng tarqalganligini e'tiborga olsak, bu komponentning kelib chiqishi O'rxon-Enisey yodgorliklaridagi az (as) xalqi yoki alan qabilasining nomi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Buxoro tarixchisi Abu Bakr Muhammad ibn Jafar Narshaxiy o'z asarida Nur nomini tilga olib, uni "Nuri Buxoro" deb atagan. Zarafshon vodiysida joylashgan boshqa hududlar, masalan, Miyonkol orolidagi qishloqlar ham Nur nomi bilan atalgan. Ushbu toponimlar asta-sekin Nurota shakliga o'tgan bo'lib, bunda "nur" so'zi arabcha "yorug'lik"ni, "ota" esa "aziz avliyo qadamjosi"ni anglatadi. Ushbu nomlarning shakllanishi va rivojlanishi hududning madaniy va diniy tarixiga oid ko'plab ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtiradi. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida 200 ga yaqin qadimiy turkiy toponimlar va etnonimlar keltirilgani, ularning geografik joylashuvi va ma'nosi haqida batafsil izohlar berilgani ushbu asarning toponimika fani uchun o'ta muhim manba ekanligini ko'rsatadi. Bu kabi manbalar toponimlarning qadimiy fonetik shakllarini aniqlash, ularning tarixiy ildizlarini tadqiq qilishda

va joy nomlari orqali o‘tmishni anglashda katta ahamiyat kasb etadi. Shu tariqa, O‘zbekiston hududidagi har bir toponim til tarixi, xalqlarning madaniy aloqalari va mintaqaviy xususiyatlarning yirik bir mozaikasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari nafaqat tarix, etnografiya va geografiyaga oid qimmatli ma'lumotlarni, balki toponimika sohasida ham boy materiallarni o‘z ichiga oladi. Ushbu asarning toponimika uchun ahamiyati shundaki, unda joy nomlarining qadimiy shakllari qayd etilgan bo‘lib, ular til va hudud tarixini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Masalan, Bobur "Dizak" nomini hozirgi Jizzax, "Kohak"ni Zarafshon, "Sayxon"ni Sirdaryo daryosi uchun ishlatgan, "Xo‘jand suyi" yoki "Sir suyi" nomlari esa yana Sirdaryoni anglatgan. Shuningdek, "Chir" nomi hozirgi Chirchiq daryosi uchun qo‘llanilgan. Bu toponimlarning qadimiy shakllari o‘z davrining lingvistik va madaniy xususiyatlarini aks ettirgan holda, hududning tarixiy rivojlanishi haqida muhim ma'lumotlar beradi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ijod qilgan rus sharqshunoslari orasida O‘rta Osiyoning, jumladan O‘zbekistonning tarixiy geografiyasi va toponimikasi sohasida akademik V. V. Bartoldning ijodi alohida o‘rin tutadi. Bartold asarlarida O‘zbekistondagi yuzlab tarixiy geografik nomlar tilga olingan va ko‘plab toponimlarning etimologiyasi keltirilgan. Masalan, olim Bag‘dod (Iroq) shahrining nomini "Xudo in‘omi" deb izohlagan. U qadimgi eroniy tillar, jumladan sug‘d tilidagi "bog" yoki "fag-bag" so‘zining "xudo", "yaratuvchi" ma'nosini bildirganini qayd etadi. Ushbu misol vaqt o‘tishi bilan atamalarning ma'nosi qanday o‘zgarishini ko‘rsatadi. Shuningdek, ilk o‘rta asrlarda "dehqon" (dehigon) so‘zi "yer egasi" yoki "katta yer-mulkka ega bo‘lgan boy" ma'nosida qo‘llanilganini ham tilga oladi.

Toshkent shahri – bugungi kunda mamlakatimizning eng yirik, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri bo‘lgan millioner shahar – o‘z tarixiy nomi bilan ham qiziq. IX–X asrlarda yashagan arabnavis olimlar Istahriy, Ibn Havqal va Muqaddasiy o‘z asarlarida Shosh viloyatining markazi sifatida Binkat shahrini qayd etganlar. Binkat hozirgi Eskijova va Chorsu oralig‘ida joylashgan bo‘lib, uning nomi forscha-tajikcha "Ko‘rimli shahar" ma'nosini anglatadi ("bin" – ko‘rinish, "kat" – sug‘dcha "shahar, qishloq, manzilgoh").

Toshkentning XIX asr tarixiga oid qimmatli ma'lumotlar Muhammad Solihning "Tarixi jadidayi Toshkand" (Toshkentning yangi tarixi) asarida uchraydi. Fors-tojik tilida yozilgan ushbu qo‘lyozma Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda. Ushbu asarda shaharning topografiyasi, toponimlari va ijtimoiy hayoti haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

Muhammad Solih Toshkentda bozorlarning ko‘pligini, ayniqsa Eskijova atrofidagi Registonning asosiy savdo markazi sifatida xizmat qilganini ta'kidlaydi. U shunday yozadi: "Bozorning do‘kon-rastalari Chorsudagi qandolatpazchilik do‘konigacha davom etadi. Ramazon oyida kechasi ham bozor ochiq bo‘ladi." Registon o‘sha davrda shaharning iqtisodiy va savdo yuragi bo‘lib, Toshkent aholisining hayotida muhim o‘rin tutgan.

Toponimlarning kelib chiqishi va ularning tarixi har birimiz tug‘ilib o‘sgan vatanga qiziqishni, bu nomlarning etimologiyasini o‘rganishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, Buxoro vohasining qadimiy shaharlarining paydo bo‘lishi va ularning nomlari o‘ta qiziqarli mavzudir.

Buxoro vohasida miloddan avvalgi 1-ming yillikka tegishli arxeologik yodgorliklar topilgan bo‘lib, ularning qoldiqlari bir nechta manzilgohlardan o‘rganilgan. Miloddan oldingi 1-ming yillikning ikkinchi yarmiga kelib, Buxoro vohasida shaharlar vujudga kelgani haqida ilk o‘rta asr

shaharlaridan sanalgan Boykand, Varaxsha va Vardonze xarobalarining o'rganilishi isbot beradi. Ahmad ibn Muhammad ibn Narshaxiy o'z asarida Buxoroni ko'p ismlar bilan tilga oladi. U Buxoroni Numijkat deb atagan bo'lsa, boshqa joylarda Bumiskat shakli uchraydi. Shuningdek, shaharni "Madinat us-sufriya" – "Mis shahar" yoki "Madinat ut-tujjor" – "Savdogarlar shahri" deb ham nomlashgan. Ammo bu nomlarning barchasidan ko'ra "Buxoro" nomi mashhurroq bo'lib, Xuroson shaharlaridan birortasi ham bu qadar ko'p nomga ega emas.

Islomiy rivoyatlarga ko'ra, Buxoro nomi "Foxira" bo'lgan. Narshaxiy "Buxoro tarixi" asarida shunday yozadi: Salmoni Forsiydan rivoyat qilingan hadisga ko'ra, Payg'ambar Muhammad (sollallohu alayhi vasallam) Jabroildan shaharlarning nomlarini so'raganlar. Jabroil javob berib, Buxoro shahri arab tilida "Foxira", fors tilida "Buxoro" deb atalishini va qiyomat kuni bu shahar shahidlar ko'pligi bilan faxrlanishini aytgan. Payg'ambarimiz shunday deb duo qilganlar: "Ey Xudo! Foxiraga baraka bergin, uning xalqlari dillarini taqvo bilan pok etgin, ishlarini pokiza qilgin va ularni mening ummatimga marhamatli qilgin." Ushbu duo tufayli buxoroliklar e'tiqodliligi va rahmdilligi bilan mashhur bo'lishgan.

Boykand (Poykand) qadimda karvon yo'lining Shimoliy Xuroson tarmog'i yo'nalishida joylashgan shahar bo'lib, Buxorodan 44 km janubi-g'arbda, Jondor va Qorako'l tumanlari tutashgan hududda joylashgan. Yozma manbalarda Boykand "Boy shahar" deb tilga olingan bo'lsa, Xitoy yilnomalarida "Bi" nomi uchraydi. Keyinchalik shahar "Poykent" – "quyi shahar" nomi bilan mashhur bo'lgan. Boykand shahri xarobalarini dastlab 1903 yilda R. Pampeli va 1913–1914 yillarda L. A. Zimin o'rgangan.

1980–1990 yillarda O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Arxeologiya instituti va Rossiya Davlat Ermitaji qo'shma arxeologik ekspeditsiyasi A. Muhammadjonov rahbarligida (a'zolari G. L. Semyonov, J. Mirzaaxmedov, Sh. Odilov) bu shaharning tarixiy qoldiqlarini chuqur o'rganish uchun keng qamrovli qazishmalar olib borgan. Ushbu tadqiqotlar Boykandning Buxoro vohasidagi qadimiy shahar sifatida alohida tarixiy ahamiyatga ega ekanligini yana bir bor tasdiqladi.

Buxoroning yana bir mashhur yodgorligi – Varaxsha. Uzoq vaqt davomida Varaxshaning mavjudligi sir bo'lib qolgan edi. Xoja Obon mozori Varaxshadan bir necha chaqirim uzoqlikda joylashgan bo'lsa-da, aholi ba'zan Varaxshani Xoja Obon deb atagan. XX asr boshlarida Turkistonga tashrif buyurgan akademik V. V. Bartold Varaxshaning joylashuvini aniqlashga qiziqish bildiradi va qadimgi Varaxsha cho'ponlar tomonidan "Qip Varaxchin" deb atalgan quduq yaqinidagi shaharchaga o'xshashligini taxmin qiladi. Keyinchalik, V. A. Shishkinning tadqiqotlari bu ilmiy farazni tasdiqladi.

Buxoro viloyatining yana bir qadimiy shahri – Romitan. Romitan tarixi va ushbu atamaning kelib chiqishi haqida ma'lumotlar Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida uchraydi. Rivoyatlarga ko'ra, Turon hukmdori Afrosiyobning qizi bosh og'rig'i kasalligidan aziyat chekkan paytida Romitanga keladi. Bu joyning havosi unga xush kelib, dardidan forig' bo'ladi va u bu joyni "Oromitan" – "tan oromi" deb ataydi. Shuningdek, toponimning "Rohmitan", ya'ni "yo'l" va "Mitan" qabilasi nomidan kelib chiqqan, degan talqini ham mavjud. Bu holda, toponim "yo'l bo'yida yashagan Mitan qabilasi qishlog'i" degan ma'noni anglatadi.

Romitan hududida joylashgan Mir Kulol-tepa, Xo'ja Bargi-tepa va Zirabod-tepa kabi yodgorliklar qadimda hunarmandchilik markazlari sifatida mashhur bo'lgan. Mir Kulol-tepa mahalliy aholi tomonidan "Baland Majlis" deb ham ataladi. Xom g'ishtdan qurilgan ushbu tepalik katta bo'lmasa-da, kulolchilik markazi sifatida o'z davrida muhim iqtisodiy ahamiyatga

ega bo'lgan. Xo'ja Bargi-tepada arablardan oldingi davrga oid xum qopqog'i va ko'za dastalari topilgan. Zirabod-tepaning markazida chuqurlik bo'lib, unda tosh plitalar qoldiqlari uchraydi. Ushbu topilmalar hududning boy tarixidan dalolat beradi va qadimiy toponimlar haqida ma'lumot beradi.

Bu yodgorliklar Buxoro vohasining tarixiy va madaniy boyligini ochib beradi va bu joylarning iqtisodiy, ijtimoiy hamda hunarmandchilik rivojida tutgan o'rnini yoritadi. Varaxsha va Romitan kabi qadimiy shaharlarda o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar, ular bilan bog'liq afsonalar va yozma manbalar ushbu hududning o'tmishi naqadar boy ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Qadimda qo'llangan toponimlar haqida ma'lumotlarni tahlil qilganimizdan so'ng, hozirgi shahar, viloyat va boshqa obyektlarning nomlarining kelib chiqishiga e'tibor qaratamiz.

Masalan, Buxoro viloyatining Kogon tumani nomi olimlarning fikriga ko'ra, "Kohkon" – "somon koni" ma'nosini anglatuvchi forscha so'zning buzib talaffuz qilinishi natijasida paydo bo'lgan. Kogon 1929-yilda "Yangi Buxoro" nomi bilan shahar maqomini olgan bo'lsa, 1935-yilda hozirgi nomiga o'zgartirilgan. Tumandagi To'dako'l suv ombori yonma-yon joylashgan ko'llar natijasida shakllangan bo'lib, Tutkunda qishlog'ining nomi esa tut daraxti kundalarining ko'pligidan kelib chiqqan.

Farg'ona so'zining kelib chiqishi haqida turli talqinlar mavjud. U sug'd yozuvlarida "Parg'ana" yoki "Prag'ana" shaklida uchrab, sanskrit tilida "kichik viloyat", fors tilida esa "tog' oralig'idagi vodiy" yoki "atrofi berk soylik" ma'nosini bildiradi. Farg'ona o'zining go'zal landshafti va tabiiy boyliklari bilan mashhur bo'lgan. Chimyon kurorti esa shifobaxsh mineral buloqlari bilan tanilgan va Olay tog'lari etagida joylashgan.

Guliston shahri nomi tojikcha "gul" va "iston" so'zlaridan tashkil topib, "gullar makoni" ma'nosini anglatadi. Bu nom cho'lni obod qilingach, mazkur hududning yashil va gullarga boy joyga aylanganini ifodalaydi.

Shunday qilib, joy nomlari o'zining uzoq tarixiy ildizlariga ega bo'lib, davrlar o'tishi, insonlarning migratsiyasi va til o'zgarishlari natijasida yangi shakl va ma'nolar kasb etgan. Bu toponimlar hududning madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy tarixini o'zida mujassam etgan muhim ma'lumot manbalaridir.

XULOSA

O'zbekistonning tarixiy-geografik nomlari va ularning etimologiyasini o'rganish xalqimizning boy tarixini, madaniy merosini va hududiy rivojlanish jarayonlarini chuqur anglashga yordam beradi. Ushbu nomlar o'z davrining ijtimoiy, iqtisodiy, tabiiy va madaniy sharoitlarini aks ettiruvchi bebaho ma'lumot manbalaridir. Davrlar o'tishi bilan joy nomlari turli omillar ta'sirida o'zgarib, yangi shakllar va ma'nolar kasb etgan.

Buxoro, Farg'ona, Toshkent, Guliston kabi nomlar o'zining tarixiy ildizlariga ega bo'lib, qadimiy yozma manbalar, rivoyatlar va arxeologik tadqiqotlar orqali yoritilgan. Masalan, Kogonning somon koniga ishorasi, Farg'onaning tog' oralig'idagi vodiy ma'nosi yoki Gulistonning gullar makoni sifatida nomlanishi bu hududlarning tabiiy-geografik va madaniy xususiyatlarini aks ettiradi.

Toponimlarning etimologiyasini o'rganish orqali nafaqat til o'zgarishini kuzatish, balki joy nomlarida yashiringan tarixiy voqealar va xalq turmush tarzi haqida ko'plab qimmatli ma'lumotlar olish mumkin. O'zbekistonning toponimikasi uning o'ziga xosligini, madaniy

xilma-xillikni va hududning boy merosini aks ettiruvchi muhim ilmiy yo‘nalish bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois, bu sohada tadqiqotlarni davom ettirish va kelajak avlodlarga tarixiy-geografik merosni to‘liq yetkazish zarur.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Nafasov T., Nafasova V. O‘zbek tili toponimlarining o‘quv izohli lug‘ati. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.
2. Qorayev S. Toponimika. Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006.
3. Kamolov. “O‘zbekiston toponimlarining o‘rganilish tarixi” (maqola).
4. To‘rayev H. Buxoro toponimikasi. Buxoro: Durdon, 2021.
5. Soliyevna S. S. et al. Xivaning Buxoro xonligi bilan siyosiy munosabatlari. – 2024.
6. Yuldosheva B., Baqoyev U. HISTORY OF LAND-WATER RELATIONS OF THE PEOPLE'S SOVIET REPUBLIC OF BUKHARA //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 6. – C. 110-115.
7. To‘rayev H., Mirzaqulov. O‘zbekiston tarixi. 3-jild. Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
8. Yuldosheva B., Erkinova N. O ‘zbekistonning tabiiy tarixiy geografiyasi (1925-1991-yillar) //iqro indexing. – 2024. – t. 9. – №. 2. – c. 631-634.
9. To‘rayev H., Mirzaqulov. O‘zbekiston tarixi. 10-jild. Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
10. Yavmutov D. Yashil iqtisodiyotga o ‘tishda xorijiy davlatlar tajribasi va uni O ‘zbekistonda qo ‘llash imkoniyatlari. – 2023.
11. Khamidov O., Yavmutov D. S., Burkhanov S. N. Problems of the effective use of irrigated land in Bukhara region and ways to improve them //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – T. 431. – C. 01056.
12. Khamidov O., Yavmutov D. S., Burkhanov S. N. Problems of the effective use of irrigated land in Bukhara region and ways to improve them //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – T. 431. – C. 01056.
13. Dilshod Y., Sardor B. O ‘zbekistonda “yashil” iqtisodiyotga o ‘tishi: istiqbol yo ‘nalishlar va ustuvor vazifalar //Journal of new century innovations. – 2022. – T. 10. – №. 2. – C. 159-168.
14. Utayeva F. MUSTAQILLIK YILLARIDA BUXORODA TO‘QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISHI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – T. 8. – №. 8.
15. Kholmamatovna U. F. Bukhara Yarn and Fabric Factory (1970-1985) //Central Asian Journal of Social Sciences and History. – 2022. – T. 3. – №. 6. – C. 160-164.
16. Bobojonova F. Деятельность школ джадидов в бухарском эмирате в начале XX века //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – T. 8. – №. 8.